

**ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG‘ONA VILOYATIDA
POCHTA-TELEGRAF XIZMATINING YO‘LGA QO‘YILISHI MAVZUSINING
FANDA O‘RGANILISHI**

Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna

Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari nomzodi Farg‘ona davlat universiteti,

Sharipov Ziyodbek

II kurs magistranti Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysida pochta-telegraf xizmatlarining tashkil etilishi tarixi tarixshunosligiga bag‘ishlangan. Ushbu maqola Farg‘ona viloyatida 1876-yilda vaqtinchalik pochta xizmatlarining tashkil etilishi, pochta idoralari faoliyati, telegraf tarmoqlarining qurilishi, 1884-yilda Rossiyaning butun hududlarida amalga oshirilgan aloqa tizimidagi islohotlar, XIX asr oxiri XX asr boshlarida vodiyyadagi pochta-telegraf xizmatlarining ahvoli haqidagi tadqiqotlar ma’lumot beradi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: Chor Rossiyasi, Farg‘ona vodiysi, pochta-telegraf xizmatlari, vaqtinchalik pochta, telegraf xizmati.

Tarixshunoslikda telekommunikatsiyalar (elektromagnit telegraf, telefon va radio) tarixining tadqiqi XIX asrning 60-yillarida vujudga kelgan. Aynan shu vaqtidan boshlab telekommunikatsiyalar tarixi dastlab epizodik, so‘ngra doimiy ravishda tadqiqotchilar e’tiborini tortadi. Natijada, bugungi kunda o‘quvchi o‘z ixtiyorida O’rta Osiyo telegraf, telefon va radio tarixining turli jihatlariga bag‘ishlangan yuzlab ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar mavjud. Ushbu kitoblar, risolalar va maqolalarning butun majmuasini tahlil qilish muammoning tarixshunoslik rivojlanishining to’rtta asosiy bosqichini ajratib ko’rsatishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu bosqichlar O’rta Osiyoda XIX – XX asrlar boshlarida telekommunikatsiyalar tarixini o’rganish intensivligi darajasida, manba bazasining kengligida hamda muammolarni o’rganish chuqurligida va mualliflar tomonidan qo’llaniladigan uslubiy yondashuvlar va nihoyat, eng murakkab, shuningdek, bahsli masalalarni ko’rib chiqishda mualliflarning xolislikni saqlashga tayyorlik darajasida sezilarli farqlarga ega.

Farg‘ona vodiysida XIX asr 70-yillarida tashkil etilgan pochta-telegraf xizmati o’tmishi tarix fanida kam tadqiq etilgan mavzular sirasiga kiradi. Bu mavzu yuzasidan adabiyotlarni guruhlarga ajratish ham tadqiqotchiga birmuncha qiyinchilik tug’diradi. Chunki bu mavzu yuzasidan keng ko’lamli tadqiqotlar amalga oshirilmagan, arxiv va statistik sharhlarni katta qismi ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf xizmatining yo‘lga qo‘yilishi mavzusiga doir adabiyotlarni shartli ravishda ikki guruhgaga ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiq:

1. Chor Rossiyasi va sovet davrida yaratilgan asarlar; 2. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda nashr qilingan ishlar.

Bu bo'linish mavjud tarixshunoslik qoidalariga mos kelmasligi mumkin. Buning sababi guruhlarga ajratish uchun amalga oshirilgan tadqiqodlar juda ham chegaralangan.

1) Chor Rossiyasi va sovet davrida yaratilgan asarlar. Dastlab jahon tarixshunoslida amalga oshirilgan ishlarga to'xtalsak. Dastlab Turkistonda, shu jumladan Farg'ona hududida tashkil etilgan pochta-telegraf stansiyalari haqidagi ma'lumotlar Rossiya imperiyasi davrida e'lon qilingan nashrlarda ham aks etgan [1].

Rossiya imperiyasida telegraf tarmoqlarining qurilishi tarixiga bag'ishlangan ishlardan biri A.B.Arenkov qalamiga mansubdir [2]. V.I.Astraxan, V.V.Pavlov va B.G.Chernyavskiy ishida Rossiyaning boshqa hududlari qatorida Farg'ona viloyatida ham amalga oshirilgan ishlar to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan [3].

Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan 1901-yilda "Почта и телеграф в XIX столетии" nomli tarixiy ocherki ham XIX asrda Rossiya imperiyasida pochta-telegraf tarmoqlari qurilishi, ularning tuzilishi hamda muhim jihatlariga bag'ishlangan. Ocherkning Turkiston telegraf bo'limiga ajratilgan qismida 1865-yildan boshlangan pochta-telegraf qurilishlari qisqacha yoritilgan [4]. Farg'ona viloyatidagi qurilishlar 1875-yilda Toshkentdan Xo'jandga boshlanganligini, 1876-yilda Mahram hamda Qo'qongacha jami 420 verst uzunlikda amalga oshirilganligi keltirilgan [4: 187]. Tarixiy ocherkning muhim jihatlaridan biri XIX asrda pochta-telegraf tizimi hodimlarining kiyinishi arxiv hujjatlariga asosan keltirilganidir.

Turkiston okrugi bosh shtabi polkovnigi Kornilov o'zining "Кашгария или Восточный Туркестан" asari harbiy nuqtai nazardan yozilganligi uchun pochta yo'llariga alohida to'xtalib o'tadi [5]. Qoshg'arda Rossiy rezidensiyasining ochilishi bilan uni Farg'ona viloyati pochta boshqarmasi bilan bog'lash zaruriyati yuzaga keladi. Kornilov asarida keltirilishicha, Andijondan Qoshg'arga ikkita yo'l So'fiyo'rg'on va Oytoldan o'tgan [5: IX]. O'z navbatida So'fiyo'rg'on yo'li 487, 446, 433 verst masofadagi 3 tarmoqqa bo'lingan. Oytol yo'li 477, 481, 455, 474, 474, 475, 443 verst masofadagi 7 ta tarmoqqa bo'lingan [5: IX]. Kornilov asari Farg'onadan Qoshg'arga olib boruvchi pochta yo'llarining deyarli barcha tomonlarini ko'rib chiqqan.

K.V.Bazilevichning "Почта в России в XIX веке" asarida ham yuqoridagi mualliflar singari Farg'ona viloyati pochtasi tarixi qisqa tarzda bayon etilgan [6].

Bevosita Farg'ona viloyati pochta-telegraf xizmatlari tarixiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, ammo uning ba'zi jihatlarini o'zida bayon qilgan tadqiqodlardan biri M.S.Visokovning "Российская империя на путях модернизации: Зарождение и развитие электросвязи в XIX – начале XX вв." mavzusidagi doktorlik dissertasiyasidir [7]. Mazkuz tadqiqotda Possiya imperiyasi tarkibidagi hududlarda telegraf tarmoqlari qurilishi tarixi yoritilgan. Ammo dissertatsiya davri hamda hududi kattaligi, shuningdek, tadqiqodning maqsadi O'rta Osiyo bo'limganligi sababli Farg'ona viloyatining pochta-telegraf tizimi tarixiga qisqa o'rinnajri ajratilgan [7: 32].

X.S.Mansirevning “Развитие средств связи в дореволюционной Средней (Колон. период)” nomli iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida mustamlaka davri O’rta Osiyodagi aloqa vositalarinining iqtisodiy ahamiyatini ko’rsatib bergen [8].

X.K.Kabirovning ishlari Tojikistonda aloqa tarixiga bag’ishlangan. Ushbu ishlarda hozirgi Tojikiston hududiga kiruvchi sobiq Farg’ona viloyati aloqa tarixi haqida ham ayrim ma’lumotlar eslatib o’tiladi [9].

2) Mustaqillik yillarida O’zbekistonda nashr qilingan ishlar

Olimlar O’.Mavlonov, S.Ahmedov, B.Umarovlar tomonidan tayyorlangan va 2014 yilda o’zbek, rus va ingлиз tillarida nashrdan chiqarilgan – “O’zbekiston pochtasi: tarix va taraqqiyot” kitobida [10], Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professor-o’qituvchilari L.N.Jo’rayev G’.R.Mamatqulov, R.F.Xudoyberdiyev va B.I.Ahtamov hammulliflikda tayyorlagan – “Zamonaviy pochta aloqasi” nomli o’quv qo’llanmasida respublikada aloqa xizmatining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi aks ettirilgan [11].

Internet tarmoqlarida ham Farg’ona viloyati pochta-telegraf tizimi haqidagi ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Internetdagи ma’lumotlarni elektron matn ko’rinishidagi ma’lumotlar manbalari va adabiyotlari ko’rsatilmagan holda o’qishimiz mumkin [12-13]. Jumladan, mytashkent.uz saytda 1885-86-yillarda Qo’qon, Andijon, Eski va Yangi Marg’ilonda Ot-pochta bo’limlari, 1876-yilda Turkistonning yirik shaharlari qatori Yangi Marg’ilon shahrida ham telegraf liniyasi barpo etilganligi, 1901-yilda esa Qo’qon-Andijon hamda Namangan-Chust telegraf liniyasi qurilgani haqida ma’lumotlar qayd etilgan [14]. Ammo bu saytda boshqa tadqiqotlar va internet materiallari singari Farg’ona viloyati aloqa tarixi to’laligicha bayon etilmagan hamda asosiy ma’lumotlar muharrir e’tiboridan chetda qolgan.

Xulosa qilib aytganda, Farg’ona viloyatida pochta-telegraf xizmatining joriy etishi tarixi tarix fanida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqodlarda deyarli aks etmagan. Mavzuning manbaviy asosi katta bo’lishiga qaramasdan, pochta-telegraf xizmatining Farg’ona viloyati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi o’rnini ko’rsatib beradigan dissertatsiyalar yaratilmagan. Bularning barchasi ushbu mavzuning O’zbekiston tarixi fanidagi dolzarb, kam o’rganilgan hamda tarix sohasi uchun muhim xulosalar berishi mumkinligini ko’rsatadi.

Foaydalilanigan manba va adabiyotlar

1. Алфавитный список телеграфных станций Российской империи // Сборник распоряжений по телеграфному ведомству. 1873. — № 13. — Приложения. -С. 1-6.
2. Аренков А.Б. Пути развития телеграфии. Л., 1933. — 52 е., ил.
3. Астрахан В.И., Павлов В.В., Чернявский Б.Г. История создания, становления и развития системы правительственной связи в России: Курс лекций. — 4.1. Орел: Военный институт правительственной связи, 1995. — 97 с.
4. Почта и телеграф въ XIX столетии. — СПб.: Типография Министерства Внутренних дѣль, 1901. — С. 187.
5. Корнилов. Кашгария или Восточный Туркестан. Опыт военно-статистического описания. Ташкент, 1903. — 426 с.
6. Базилевич К.В. Почта в России в XIX веке. М.: Изд-во НКПТ, 1927. — 196 с.

7. Высоков М. С. Российская империя на путях модернизации: Зарождение и развитие электросвязи в XIX - начале XX вв. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.02, доктор исторических наук. – СПб. 2004, 44 с.
8. Мансырев Х.С. Развитие средств связи в дореволюционной Средней Азии (Колон. период): Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1967. 22 с.
9. Кабиров Х.К. средств связи в Таджикистане. Душанбе, 1965; Он же. Развитие средств связи в Таджикской ССР: Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Душанбе, 1967.
10. Мавлонов, Ў., Аҳмедов, С., Умаров, Б. Ўзбекистон почтаси: тарих ва тараққиёт. — Тошкент: Маънавият, 2014. – 295 б.
11. Жўраев, Л.Н. ва б. Замонавий почта алоқаси. Ўқув қўлланма / F.P. Маматқулов, Р.Ф. Худойбердиев, Б.И. Ахтамов. — Тошкент: 2016. – Б. 3-17.
12. <https://mytashkent.uz/2011/03/22/kratkaya-istoriya-razvitiya-svyazi-v-turkestanskom-krae/>; <https://vesti.uz/po-pochtovomu-traktu-turkestana/>
13. <https://sklyarevskiy.livejournal.com/2541603.html>;
<https://www.gazeta.uz/ru/2021/10/09/post/>; <https://uz.post/istoriya-pocsty>
14. <https://mytashkent.uz/2011/03/22/kratkaya-istoriya-razvitiya-svyazi-v-turkestanskom-krae>